



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA VATAN TIMSOLLARI

Maxmudova Sadoqat Xolmatovna
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Maqolada yangi o'zbek she'riyatida Vatan tashbehlari, istioralari, sifatlashlari tahlillarda ochib berilgan. Oybek, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusuf, S.Sayyid kabi shoirlar ijodidan misollar olinib, tahlillarda shoirlarning vatansevarlik hislari, dunyoda hamma narsa o'tkinchi, faqatgina Vatan unda mangu qolishi, Vatanni qiblagohga o'xshatish vatanparvarlik timsoli sifatida izohlangan.

Kalit so'zlar. Vatan, timsol, tashbeh, istiora, sifatlash, Vatan surati, Vatan sog'inchi, qiblagoh, vatansevarlik hissi.

Yangi she'riyatda Vatan tashbehlari, istioralari, sifatlashlari bisyor. Oybek, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusuf, S.Sayyid kabi shoirlar she'rlari buni tasdiqlaydi:

Go'zal yurtim – bir g'uncha gul,
Hidlaring soch erk bog'ida.

E'tibor berilsa, Oybek Vatanni bir g'uncha gulga o'xshatgan. Qolaversa, tasvirda ijtimoiy mazmun ifoda etilgan: shoir go'zal yurti – bir g'uncha gulning erk bog'ida hidlarini sochishini istaydi. Erk bog'i ham bunda istiora bo'lib kelgan.

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston.

Hamid Olimjon qo'llagan tashbeh Vatanning betakror tabiatiga ishora qiladi: shoir uni go'zal bo'ston, dostonlarda bitgan gulistonga mengzaydi.

Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?

Yangi she'riyatda Bobur va Furqat nomlari Vatan sog'inchiga ishora qilinadi. Yuqoridagi talmehda ham Abdulla Oripov Furqatni shu jihatdan talmeh qilib keltirgan va otashnafas shoirning Vatandan uzoqda "shu tuproq" deb yig'laganini aks ettirmoqda.

Men kuzni sevaman, kezarkan xushhol,
Oltin O'zbekiston tuprog'i bo'ylab.

Bunda shoir O'zbekistonni oltinga mengzamoqda. Bu istiorada yurtning kuzidagi tabiat manzarasi nazarda tutilgan.

Qizg'aldoq bargidek uchur dildan g'am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim,
Bahoring muborak bo'lsin ushbu jam,
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim.
Faqat sen ko'nglimga keltirmay malol,
Charchagan ruhimga quvvat berursan.
Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,
Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

Yuqoridagi falsafiy mushohada va tuyg'uga boy satrlarda shoir o'ziga xos sifatlash qo'llaydi: "dilbar Vatanim". Bunda shoirning vatansevarlik hislari to'lib-toshganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, shoir bitta muhim hayotiy xulosaga keladi: bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi, faqatgina Vatan unda mangu qoladi.

Mening ham bor do'stu qarog'im,
Sha'nlariga she'rlar kuyladim.
Lekin tanho quvongan chog'im,
Sirdoshim deb seni o'yladim.
Bedard emas umr ham aslo,
Hasratlardan goho so'yladim.

Shubha ichra qolganda tanho,
G'amdoshim deb seni o'yladim.
Qucholmasman men seni hargiz,
Sen osmonsan, menchi zarra tan.
Qiblagohim, yupanchim yolg'iz
Sen barhayot onamsan, Vatan...

Ushbu satrlarda A.Oripov Vatanni sirdoshga qiyos etadi. Zero, bu tasvirdagi yangilikdir. G'amdosh, qiblagoh, yupanch, barhayot onaga mengzaydi. Binobarin, Vatanni qiblagohga o'xshatish an'anaviy bo'lib, birinchilardan bo'lib Fitrat qo'llagan.

Vatanim quyoshga ko'ksini ochib,
Osiyo qo'ynida yashnagan bo'ston.
Bunda O'zbekiston "yashnagan bo'ston" deb sifatlantirilgan.

Agar qo'yib bersa keng jahonni ham,
Zarga o'raguvchi O'zbekistonsan.

Shoir bu tashbehi ham ohorli: uning quyoshli o'lka ekanligini inobatga olib, "keng jahonni zarga o'raguvchi O'zbekiston", deya ta'rif etadi.

Bir yonda xayoliy Eram bog'idek,
Buyuk va betimsol mening Vatanim.
U mening ko'zimga hilolday mahvash,
Oftob kelar faqat uning qoshiga.

Eram – afsonaviy bog'. Bu talmeh orqali shoir Vatanning keng va bepoyonligiga ishora qiladi. Buyuk, betimsol, hilolday mahvash tashbehi sifatlashlar ham vatansevar shoir qalbidagi yoniq muhabbatni ifoda etadi.

Qadim bir diyordir – yo'qdir qiyosi,
Ajab bir bo'ston bu – O'zbekiston bu

Bu satrlar shoirning Hamid Olimjonning "O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston" misrasiga hamohang jaranglaydi. Shoir ham yurtini qiyosi yo'q, ajab bo'stonga o'xshatadi.

Nechog'li sabot bor yovqur Shiroqda,
Eryigitov to'pga ko'ksin bosar jim.
Rahimov g'animga tashlangan chog'da,
Alpomish shiddatin anglamagan kim?

Ushbu misralarda talmeh bo'lib kelgan Shiroq, Alpomish, Eryigitov, Sobir Rahimov nomlari vatanparvarlik timsoliga aylangan. Shiroq qabilasini himoya qilish uchun Doro qo'shinini kimsasiz sahroga olib boradi. To'ychi Eryigitov va Sobir Rahimovlar Vatan urushi yillarida uning uchun jon olib jon berdilar. Alpomish esa Qo'ng'iro't elini har nedan ustun qo'ygan xalq qahramoni. Shoir shularda Vatan suratini ko'radi.

Munis nigohini qadab quyoshga,
Turar u nurday pok, ishqday bezavol.
Kechmish kamolotin ko'tarib boshga,
Yiroq asrlarga ko'z tutib xushhol.

Bundagi tasvir ham ohorli: endi Vatan "munis nigohini quyoshga qadagan, nurday pok, ishqday bezavol" deya tashbehlanadi. Bu bilan uning abadiyligiga ishora qiladi.

Yurtim, senda ekan nasibam tugal,
Sen o'zing maskanim, sen o'zing shonim.
Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,
Ey, jonim, jahonim – O'zbekistonim.

Bundagi tashbehlar uyushib kelgan: maskan, shon, jon, jahonga qiyoslangan, ona, singil, yor qadar aziz ekanligi aytilgan.

Yurt – chaman deb shivirlaydi lablarim.

Jamol Kamolning ham Vatanga mehri beqiyos. Shuning uchun u ona yurtini chamanga mengzaydi.

Vatan – shukrona singlim,
Onajonimdir Vatan.

Yuqoridagi satrlarda qo'llangan tashbehtar an'anaviy. Biroq mazmun chuqur va zalvorli. Sharaf-shon, yorug' yo'l sifatlashlari vatanning hurriyat, istiqlol yo'lini bildiradi. Uni onaga qiyoslash an'anaviy, lekin singil deya ardoqlash yangi. To'g'ri, bunday tashbehtar rus shoiri S.Yesenin, o'zbek shoirlari A.Oripov, M.Yusuf she'rlarida kuzatiladi. Bu esa singilning mehri, oqibati, ona kabi qadrlanishi bilan bog'liq.

Bir suvoriy kelmoqdadir – Boburmi yo?
Hirotni yo, Hindistonmi yoki Ko'nyo,
Ko'rib keldi, bundan so'ng ham ko'rsin dunyo
Sultonlari, xonlarini, xonlarini.

Yana shoir Vatanning qadim tarixiga yuzlanadi. Boburning Vatan hijroni timsoli bo'lib kelishi an'anaviy. Bunda ham ulug' saltanat bunyod etgan, biroq yurti ishqida yonib yashagan Boburga ishora bor.

Ketar jisming muvaqqatdir,
Vatan – mangu muhabbatdir,
Agar kimda muhabbat yo'q,
Jahonda nomurod bo'lgay.

Darhaqiqat, inson o'tkinchi, umr bevafo. Biroq Vatan abadiy. Shu jihatdan shoir uni "mangu muhabbat" deya tashbehtarlaydi. Bu satrlar A. Oripovning "Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol, Faqat sen dunyoda mangu qolursan" degan mashhur satrlarini yodga soladi.

Vatan kabi poyoni yo'qdir,
Vatan kabi mangu Navoiy.

Bu misralar ham yuqoridagi she'rga uyg'un. Navoiy – o'zbek xalqining quyoshi. U Vatanga tenglashtiriladi.

Shoir "Vatan" nomli she'rida metaforik badiiy vositalar an'anaviy mavzuning yangi ma'no qirralarini kashf etgan:

Yerda ham til bordur.
Tunlar qovushib, dilga yaxlit jon va tan
Ellik qal'alardan kelsa tovushing,
Tovushlaring kelsa tuproqqal'adan!
Men ham bir qo'rg'onday ketgum qorishib
Ulug' qo'rg'onlardan yaralgan Vatan –

deb yozadi shoir. "Ulug' qo'rg'onlar" timsolidagi Vatan haybati, shukuhi, tarixidan g'ururlanish, tuprog'iga mehriyu jismini qorishishni his etish – shu yurtga doxillik uning farzandi bo'lishlikni anglatadi.

Bir parcha noniga qanoat qilgan,
Bug'doy boshog'idan sinoat qilgan.
Elim bor, yurtim bor – nomus, orlarim,
Oltin dalalarim, bug'doyzorlarim.

Shoir oltin dalalar va bug'doyzorlarda bepoyon va cheksiz Vatan kengliklarini ko'radi.

Vatan azal bitta Vatandir,
U biz uchun so'lmas chamandir.
S.Sayyid yurtni so'lmas chamanga qiyos etadi.
Ko'klardagi to'lin-to'lin oyday Vatan,
Osmon desam, toshqin-toshqin soyday Vatan.
Vatan desam, ko'z oldimga onam kelgan,
Onam desam, nigohimda paydo Vatan,
Bahor kelmish yana rizqu ro'zingizga,
Dog' tushmasin hargiz rangu ro'yingizga.

Yuqoridagi satrlarda qo'llangan tashbehlar ham hayotiy mazmunga ega: shoir uni to'lin oyga, toshqin soyga, onaga o'xshatadi.

Ko'rinadiki, yangi she'riyatda Vatan obrazi o'ziga xos tashbeh, istiora va sifatlashlarda ta'sirchan ifoda etilgan. Ayniqsa, uning bo'ston, so'lmay chaman, saodatboshi, to'lin oy, toshqin soy, orzuli chaman yashnagan bo'ston osmon bir g'uncha gulga qiyoslaydi, Vatan timsoliga aylangan Shiroq, Alpomish, Eryigitov, Sobir Rahimov nomlari vatanparvarlik timsoli sifatida ko'rsatiladi. Bobur va Furqat ismlari esa Vatan sog'inchini ifodalab kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 52.
2. Ҳамид Олимжон. Дарё каби уйғоқ ўтурман. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1951. – Б. 65
3. Абдулла Орипов, Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 44.
4. Жамол Камол. Аср билан видолашув. Сайланма. 6 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б.
5. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. — Т.: «Шарқ», 2007. – Б. 203.
6. Сирожиддин Саййид Дил фасли: Шеърлар.— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2007. – Б. 112.
7. Сирожиддин Саййид Қалдирғчларга бер айвоонларингни. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 15.
8. Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. 2 қисм. –Тошкент: Шарқ, 2008. – Б.12.
9. Саййид С. Қалдирғочларга бер айвоонларингни. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.